

BILISH NAZARIYASIDA KONSTRUKTIVIZM MUAMMOSI

*Gulchehra G'affarova,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
kafedrası mudiri, falsafa fanlari doktori, professori
g.gafforova@cspu.uz*

Annotatsiya. Insoniyatni, fanni rivojlanishi har bir davrga xos bo'lgan yangi kategorial apparati, metodologiya, paradigmalar yaratadi. Bular esa bilishning imkoniyatlarini kengaytiradi, murakkab dunyoni sirlarini o'rganish asosida yana yangi yondashuvlari yaratiladi. Bu jarayonning yo'nalishlari xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bilish nazariyasidagi konstruktivizm, eng avvalo, idrokga tayyor axborotni oddiy o'zlashtirish sifatida emas, balki bilim yaratishning faol jarayoni sifatida qaraladigan tushunchadir. Konstruktivizmnining asosiy muammosi - bu bilishning subyektiv tabiati haqidagi markaziy g'oyasi va obyektiv voqelikni tan olish zarurati o'rtasidagi muvozanatdir. Ushbu maqolada konstruktivizm muammosi falsafiy tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: bilim, bilish, bilish jarayoni, falsafa, konstruktivizm, yondashuv, apriori, tafakkur, murakkablik, avtopoeziya, tizim.

ПРОБЛЕМА КОНСТРУКТИВИЗМА В ТЕОРИИ ПОЗНАНИЯ

Аннотация. Развитие человечества, науки создает новый категориальный аппарат, методологию, парадигмы для каждого возраста. Они расширяют возможности знания и создают новые подходы, основанные на изучении секретов сложного мира. Тенденции этого процесса разнообразны. Конструктивизм в теории познания, прежде всего, это концепция, в которой познание трактуется как активный процесс создания знаний, а не как простое усвоение готовой информации. Основная проблема конструктивизма заключается в том, как балансировать между его центральной идеей о субъективной природе познания и необходимостью признания объективной реальности.

В этой статье анализируется философская проблема конструктивизма.

Ключевые слова: знание, познания, процесс познания, философия, конструктивизм, подход, априори, мышление, сложность, автопоэзия, система.

THE PROBLEM OF CONSTRUCTIVISM IN THE THEORY OF KNOWLEDGE

Gulchehra Gaffarova
Chirchik State Pedagogical University, Head of the department of national idea, spiritual foundations and legal education, doctor of philosophy, professor
g.gafforova@cspu.uz

Annotation. Being common of human and science developing makes new categorical apparatus, methodology and paradigms. These extends opportunities of

knowing, makes new approaching by learning mysteries of complex world. They are very different. Constructivism in the theory of knowledge is, first of all, a concept in which cognition is treated as an active process of creating knowledge, and not as a simple assimilation of ready-made information. The main problem of constructivism is how to balance between its central idea of the subjective nature of cognition and the need to recognize objective reality. In the article, a problem of constructivism is researched philosophically.

Key words: knowing, process of knowing, knowledge, philosophy, constructivism, approach, a priori, thought, complexity, autopoiesis, system.

Kirish

Hozirgi vaqtda ijtimoiy innovatsiyalarning paydo bo'lishiga shunchaki tayyor bo'lishning o'zi kifoya emas, balki jamoa, tashkilot, davlat rivojlanishini ongli ravishda va kerakli kelajakni loyihalash uchun murakkab fanning eng yangi usullarini bilgan holda innovatsion rivojlanishning kerakli yo'nalishiga yo'naltirish mumkin va zarurdir. Mumkin bo'lgan beqarorlik va ofatlarga tayyor bo'lishning o'zi yetarli emas (va ijtimoiy jarayonlarning murakkablashishi bilan ularning ehtimoli ortadi), lekin beqarorlik holatlaridan chiqishning maqbul yo'llarini topish, eng kam yo'qotishlar bilan tanqidiy davrlarni boshdan kechirish bizning qo'limizda.

Har bir ijtimoiy rivojlanish davri uchun o'ziga xos bilish gnoseologik nazariyalar, bilish usullari, metodologiya, paradigmalar bilan ajralib turadi. Insoniyatni, fanni rivojlanishi har bir davrga xos bo'lgan yangi kategorial apparati, metodologiya, paradigmalar yaratadi. Bular esa bilishning imkoniyatlarini kengaytiradi, murakkab dunyoni sirlarini o'rganish asosida yana yangi yondashuvlar yaratiladi. Bu jarayonning yo'nalishlari xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Bilish nazariyasidagi konstruktivizm - bu yondashuv bo'lib, unga ko'ra inson bilish va tafakkur jarayonida atrofdagi dunyoni aks ettirmaydi yoki takrorlamaydi, balki uni faol ravishda qayta yaratadi, yaratadi, quradi, degan g'oya shakllanadi. Ushbu yondashuv turli mualliflar tomonidan turli intizom sohalari asosida ishlab chiqilgan: genetik epistemologiya asosida - Jan Piaje, tizimlar nazariyasi va kibernetika - Xayns fon Fyorster, antropologiya - Gregori Beytson, idrok psixologiyasi - Ulrik Naysser, psixoterapiya - Paulem Vatslavik, kognitiv psixologiya - Ernst fon Glazersfeld, neyrobiologiya va kognitiv fan - Umberto Maturana va Fransisko Varela.

V.F. Petrenko esa "konstruktivizmni inson haqidagi fanlardagi yangi paradigma" sifatida tahlil etgan [13].

YE.N.Knyazeva enaktivizmni epistemologiyada konstruktivizmning yangi shakli sifatida qaraydi. YA'ni, uning fikricha «epistemologiyada konstruktivizm – bu shunday yondashuvki, unda inson o'zining tafakkuri va idrok jarayonida o'rab turgan olamni (dunyoni) nafaqat aks ettiradi, balki faol yaratadi, uni quradi» [4-5].

V.A. Lektorskiy va YE.O. Trufanova maqolasida "zamonaviy gnoseologiya va inson fanlaridagi konstruktivistik yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari,

madaniy munosabat sifatida proyektiv konstruktivizm masalasi, radikal konstruktivizm tabiiy jarayonlarni sun'iy jarayonlar bilan almashtirish g'oyasi sifatida tahlil qilinadi" [6].

M.D.Ivanov maqolasida "epistemologik konstruktivizm aqliy amaliyot sifatida ochib berilgan hamda gnoseologik konstruktivizmning fikrlash usuli va diskursiv amaliyot sifatida mohiyati ochib berilgan" [1].

Prof. M.N. Abdullayeva va G.G'.G'affarovalar ilmiy asarlarida falsafada konstruktivizm muammosi, konstruktiv dialog - harakatlar strategiyasida muammolarni hal qilish yo'li sifatida tahlil etilgan [14-15].

Muhokama va natijalar

Bilish jarayoni insoniyatni doimo qiziqtirib kelgan. Inson qanday qilib dunyoni o'rganadi, anglaydi, bilish jarayoni qanday ro'y beradi, bilish jarayonida inson va obyektiv dunyoning bir-biriga nisbatan tutgan o'rni kabi masalalar insonlar, ayniqsa faylasuflar orasida doimo qizg'in bahslarga sabab bo'lgan. Qadimgi zamonlardan bugungi kungacha turli xil gnoseologik konsepsiyalar yaratilgan.

Zamonaviy epistemologiyada keng tarqalgan konstruktivizm, postneklassik fanining yondashuvi haqida ko'p maqolalar, monografiyalar chop etilgan. Ushbu paradigmani asoslarini yaratishda Viko, Berkli, Kant kabi donishmandlarning xizmatlarini ko'rsatish mumkin. XX asrning ikkinchi yarmida konstruktiv paradigmalar tabiiy fanlarda ham gumanitar fanlarda ham ilmiy nazariyalarning muhim qismiga aylandi. Ayniqsa, konstruktivizm tushunchasi matematika, mantiq, falsafa, fan va san'atda keng foydalaniladi.

Ma'lumki, bilimga inson qanday erishadi degan savolga javoban falsafada turli yo'nalishlar shakllangan. Masalan, Aristotelni fikriga ko'ra, inson tajriba orqali bilimga ega bo'ladi, tashqi dunyoda mavjud bo'lgan narsalar, hodisalar insonni sezgilariga ta'sir qilinishi ta'kidlanadi. Platonning yondashuvi boshqacha. Uning yondashuviga ko'ra: inson «g'oyalar» dunyosida ko'rganini «eslash» qobiliyatiga ega. Inson tug'ilganida haqiqiy bilimlarga ega, hayoti davomida faqat tashqi ta'sirlar natijasida ularni «eslash» va ulardan foydalanishi mumkin.

Darhaqiqat, Platon, Dekart va keyinchalik boshqa faylasuflar ta'limotlarida ushbu qobiliyat insonni o'zida mavjud, ana shu asosida inson dunyoni o'rganadi, anglaydi degan yondashuv mavjud bo'lgan.

Kant ta'limotida esa bizning ongimizda «azaldan», ya'ni har qanday tajribagacha apriori bilim mavjud. Ular insonni har qanday tajriba o'tkazish uchun imkon beradi va tajribani shakllarini belgilaydi. «Har qanday bilish narsalarni bilish bilan emas balki bizning bilishimizning shakllarini o'rganganligi sababli ushbu bilish apriori bo'lishi shart» [2].

Kant ta'limotida bizning ongimizda «sof aql tushunchalari apriori mavjuddir», ya'ni unda oldindan bilishning aprior shakllari mavjud, ular uning bilimiga zaruriylik va umumiylik xususiyatini beradilar. «Kantning buyuk va fundamental kashfiyoti: insonlar tafakkuri va idroki har qanday individual tajribagacha muayyan funksional strukturaga ega»[7]. Kantning apriori tushunchasi inson tafakkurining faolligi ichki manbaa bilan bog'liqligini anglatadi, ya'ni tafakkur faoliyatining asosi insonning o'zidir.

Konstruktivizm atamasi XX asrning 70-yillari oxirida faol ishlatila boshlandi va gumanitar fanlar uchun nazariy va metodologik qurilmani belgilaydi, ilmiy jamoa faoliyati va ilmiy kommunikatsiya tarmog'ida ilmiy bilimlarni ishlab chiqish, ijtimoiy qadriyatni o'rnini ta'kidlaydi hamda ushbu madaniyatlar olam manzarasini qurishda bilish uchun asos bo'ladi.

Konstruktivizm tushunchasi 1950 yillarda birinchi bo'lib bilish nazariyasida J.Piaje va Dj.Kelli ishlarida muhokama etilgan. Ammo tushuncha maqomini hamda epistemologik aniqlashni bildiradigan nuqtai-nazarda 1981 yil P.Vatslavikning "Faoliyat yaratuvchan" (Izobretennaya deyatelnosti) maqolasida keyin oldi.

Bugungi kunda konstruktivizm tushunchasi falsafa va fanda keng ishlatilmoqda. Xususan, I.Linsoln, I.Guba, E.fon Glazerfeld, J.Piaje, Dj.Kelli, Dj.Bruaner, P.Berger, K.Lukman, Dj.Djerdmen, V.Birr, V.Petrenko, J.Roskin, K.Gergen, A.Ulanovskiy, YE.Knyazeva va boshqalar asarlari va tadqiqotlarida ijtimoiy konstruktivizm, radikal konstruktivizm, psixologiyada konstruktivizm hamda yangi ko'rinishdagi paradigma sifatida ishlatilgan.

XX asr boshlarida konstruktiv g'oyalar ilmiy bilimning turli yo'nalishlarida paydo bo'la boshladi, xususan, lingvistikada (F. De Sossyur), biosemiotika (Y. Fon Ikskyul), operatsionalizm (U.P.Bridjmen). Shu bilan birga XX asrning ikkinchi yarmida konstruktiv paradigmalar tabiiy fanlarda ham gumanitar fanlarda ham ilmiy nazariyalarning muhim qismiga aylandi. Ushbu paradigma turli fanlar asosida rivojlantirilgan: genetik psixologiya, bolani rivojlantirish psixologiyasi – Jan Piaje, tizimli nazariya va kibernetika – Xans fon Fyorster, antropologiya – Grigori Beytson, psixologii vospriyatiya – Ulrikom Naysser, psixoterapiya – Paul Votslovik, kognitiv psixologiya – Ernst fon Glazersfeld, mikrobiologiya va kognitiv fanlar – Umberto Maturana va Fransisko Varela [4]. Ijtimoiy fanlarda (sotsiologiya, politologiya, ijtimoiy falsafa) ongning konstruktiv qurilmalari mavjud. N.Luman, F.Gvattari ijtimoiy hayotni ham murakkab tizimlar va avtopoezis nazariyalari asosida tadqiq qila boshladilar [8].

Aytish kerakki, nafakat konstruktivizm tushunchasini balki uni bir necha turlarga bo'lib ham tadqiq etilgan. Jumladan, L.Shteff, Dj.Geyl konstruktivizm paradigmasini olti turga bo'ladi, ya'ni ijtimoiy konstruktivizm, radikal konstruktivizm, axborotni qayta ishlash sohasidagi konstruktivizm, kibernetik konstruktivizm yoki konstruktiv tizim, ijtimoiy-madaniy konstruktivizmni sanab o'tadilar [17]. Shu bilan birga M.Daujiamas esa konstruktivizmni individual, radikal, ijtimoiy, madaniy va tanqidiy konstruktivizm kabi tipologiyasini ishlab chiqadi[16].

Дарҳақиқат, “конструктивизм – образ, тушунча ва фикрлашни яратиш (konstruksiyalash) maxsus refleksiv jarayonlarda qo'llaniladi va subyektni faol bilishiga asoslanadigan falsafa fani va epistemologiyadagi yo'nalishdir. Falsafa doirasida konstruktivizm o'zida shunday yondashuvni oladiki, unga ko'ra barcha bilish faoliyati konstruksiyalangan hisoblanadi” [3, 5]. Shu sababli ham bilish nazariyasida konstruktivizm – bu shunday yondashuvki, unda inson tafakkuri va bilish jarayonida olamni o'zida aks ettirmaydi yoki o'rab turgan olamni o'zida

qayta yaratadi, balki faol ravishda tiklaydi (yaratadi), uni konstruksiyalaydi [11, 140].

Shu bilan birga YE.N.Knyazeva enaktivizmni epistemologiyada konstruktivizmning yangi shakli sifatida qaraydi. YA'ni, uning fikricha «epistemologiyada konstruktivizm – bu shunday yondashuvki, unda inson o'zining tafakkuri va idrok jarayonida o'rab turgan olamni (dunyoni) nafaqat aks ettiradi, balki faol yaratadi, uni quradi» [4]. Darhaqiqat, konstruktivizmning asosiy g'oyasi bizni o'rab turgan dunyoni tafakkur va idrok etish jarayonlarida aks etishdan ko'ra uni konstruksiyalashtirishimiz faol yaratadi.

Konstruktiv yondashuv haqidagi tezislar ichida YE.N.Knyazeva bir muncha aniqroq ko'rsatadi, ya'ni unda 1) bilim olamni aks etmaydi; 2) insonlar konstruksiyani yaratadi; 3) bilim haqiqat emas, balki yashovchandir (jiznesposobni); 4) miya – yopiq tizimdir; 5) bironta ham bilim o'zicha yagona bo'lolmaydi [5].

V. A. Lektorskiy hamda YE.O.Trufanovlar ilmiy asarlarida bilishning, xususan, ilmiy bilishning konstruktivistik tushunchasining xususiyatlari o'rganiladi. Ularning fikricha, “dunyoni to'liq nazorat qilishning mumkin emasligi va radikal konstruktivistik munosabat, agar amalga oshirilsa, inson erkinligining g'alabasiga emas, balki uni yo'qotishiga olib kelishi mumkin” [6, 110]. Albatta, gnoseologik konstruktivizm kognitiv faoliyatning adekvat talqinini bera olmasligi va fanda samarali strategiya bo'la olmaydi.

M.D.Ivanov epistemologik konstruktivizm konstruktivistik metodologiyadagi kognitiv burilish bilan bog'liq, epistemologik konstruktivizmning muhim jihatlarini aniqlash, fikrlash tarzi sifatida u shaxsiy konstruksiyalarni ishlab chiqarish uchun kognitiv vositalar mavjudligini nazarda tutadi, diskursiv amaliyot sifatida - bu til resurslari bilan qo'llab-quvvatlanadigan “men”ning konstruktivistik jihatlarini amalga oshiriladigan kontekst ekanligiga e'tibor qaratgan[1]. Uning fikricha, “epistemologik konstruktivizm da ikki tomonlama va o'zaro shartli bo'lgan ikkita muhim jihatni ajratib ko'rsatish kerak. Birinchi jihat - fikrlash tarzi sifatida konstruktivizm - shaxsiy konstruksiyalarni ishlab chiqarish uchun kognitiv vositalar mavjudligini nazarda tutadi. Shaxsiy konstruktivizm barcha turdagi amaliyotlar ko'rinishidagi ijtimoiy-madaniy asoslarni nazarda tutadi. Ikkinchi jihat ular bilan "men" ning konstruktivistik jihatlarini ro'yobga chiqadigan, diskursiv amaliyotlar tilining resurslari bilan qo'llab-quvvatlanadigan kontekstli joylar sifatida bog'liq”[1, 605].

Murakkab tizimlarni tadqiqi bilish nazariyasiga yangi yondashuvlar, tushunchalar shakllanishiga olib keldi. Klassik fan asosida obyektiv dunyoda aniqlik, muharrirlik, determinizm kabi xossalar mavjudligi e'tirof etildi, tasodif, noaniqlik kabi holatlarni esa subyektning xatosi deb qabul qilingan. Klassik termodinamika, kvant fizikasi, biologiya, murakkab tizimlar nazariyasi (sinergetika) tasodif, noaniqlik, indeterminizm, ehtimol tushunchalarni obyektivligini va dunyoda sodir bo'layotgan jarayonlarga ta'sir qilishlarini isbotlab berdi.

Murakkablik hodisasini tadqiq qilish tizimning nafaqat tartibga solingan, barqaror jihatlarini bilish, balki uning turg'un bo'lmagan holatlarini va o'zini-o'zi

tashkil qilish vositasida sifat jihatdan yangi holatga o'tishini o'rganishni ko'zda tutadi. Bu tizimga tartibga solinganlik bilan bir qatorda nochiziqlik va tartibsizlik ham xos ekanligi bilan bog'liq. Zamonaviy fanda murakkablik nazariyasi (complexity science) fanlararo bilimlar sohasi sifatida rivojlanmoqda.

Avtopoezis konsepsiya mualliflari U.Maturana va F.Varela bilish jarayonining «tayyor» holatida emas, balki dunyoni yaratilishi hayot jarayonining asosida shakllanishini e'tirof etadilar. «Har qanday faoliyat bilishdir, har qanday bilish faoliyatdir» [9, 103]. Bilishning «hech qanday obyekti yo'q. Bilish – o'zaro individual yoki kooperativ ta'sirlar bilan bog'liq vaziyatlarda o'zini adekvat tarzda tutmoqdir» [9, 135].

«Bilish fenomeniga tashqi dunyoda» qandaydir «faktlar yoki obyektlar mavjud va biz ularni anglaymiz va ongimizda saqlaymiz deb yondashish mumkin emas. Dunyo to'g'risida olingan ma'lumotlar o'ziga xos ko'rinishda (shaklda) insonning strukturasi bilan tasdiqlanadi, uning natijasida biz narsa to'g'risida bilimga ega bo'lamiz va uni tavsiflash imkoniyatiga ega bo'lamiz» [10, 6].

U.Maturana va F.Varela konsepsiyasi evolyutsion epistemologiyaga yangicha qarashlarni shakllantirdi. Shu bilan birga Kantning apriori g'oyasi inson tafakkuri har qanday individual tajribagacha muayyan funksional strukturaga ega o'z tasdig'ini topdi. Konsepsiyada inson individual biologik strukturaga egaligi aniqlandi.

Jonli (tirik organizm) strukturasi va atrofdagi muhit orasida strukturaviy kongruentlik mavjud» [10, 27]. Strukturaviy kogerentlik mavjud bo'lmasa jonli organizm xalok bo'ladi.

Xulosa

Yuqorida aytilgan fikrlar konstruktivizmning ba'zi bir masalalariga oid bo'lib, hozirgi murakkab ijtimoiy, iqtisodiy, globallashuv davrida ushbu konsepsiyaga asoslanib ta'lim-tarbiya, kommunikatsiya masalalarini ham tadqiq etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki konstruktivizm mohiyatiga ko'ra, inson tashqi dunyoni aks ettirmaydi, doimo undan kelgan signallar asosida o'zigagina xos bo'lgan ushbu dunyoni modelini ijod etadi. ya'ni, inson tafakkuri va bilish jarayonida olamni o'zida aks ettirmaydi balki faol yaratadi, konstruksiyalaydi.

Biz tabiatan shundaymizki, biz doimo o'z haqiqatimizni va hozirgi kunimizni qayta ixtiro qilamiz, quramiz. Dunyo bizning ixtiromiz ekan, har birimiz kognitiv jihatdan yolg'izimiz va umidsiz. Chunki har birimiz o'zimizning kognitiv imkoniyatlarimiz darajasida dunyoni idrok qilamiz va tushunamiz. Har bir inson o'z dunyosini o'zlashtiradi, faolsizlantiradi, o'z haqiqatini quradi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Иванова М.Д. Эпистемологический конструктивизм как способ мышления и дискурсивная практика // [79-я научная конференция студентов и аспирантов Белорусского государственного университета \[Электронный ресурс\]: материалы конф. Ч.1. – Минск: БГУ, 2022. –С.603-605.](#)
2. Кант И. Введение // Критика чистого разума.
3. Касавин И.Т. Конструктивизм: заявленные программы и нерешенные проблемы // Эпистемология и философия науки, 2008. №1. –с.5.

4. Князева Е. Энактивизм: новая форма конструктивизма в эпистемологии. – М., 2014.
5. Князева Е. Эпистемологический конструктивизм // Философия науки. Вып.12. – М.: ИФ РАН, 2006. №1.
6. Лекторский В. А. , Труфанова Е. О. Конструктивизм в эпистемологии и науках о человеке // Человек, 2019. Том 30. Выпуск №1, -С.102-124. [Электронный ресурс]. URL: <https://chelovek-journal.ru/> (дата обращения: 11.06.2025). <https://doi.org/10.31857/S023620070003025-4>
7. Лоренц К. Кантовская концепция априори и в свете современной биологии. Эволюция. Язык. Познания. – М., 2001.
8. Луман Н. Социальные системы. – Санк-Петербург, 2007. Истина, знания, наука как система. – М., 2016.
9. Матурана У. Биология познания. Язык и интеллект. – М., 1995. – С.135.
10. Матурана У., Варела Ф. Дерево познание. Биологические корни человеческого понимание / перевод с англ. Ю.А.Данилова. – М.: Прогресс-традиция, 2001. – С.6.
11. Сапрыкине Е.В. Конструктивизм и проблема понимания в современном философском знании // Философские науки, -С.140.
12. Сергодеева Е.А. Феноменологическая версия эпистемологического конструктивизма // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия “Регионоведение: философия, история, социология, юриспруденция, политология, культурология”. 2010. №4.
13. Петренко В.Ф. Конструктивизм как Новая парадигма в науках о человеке // Вестник Санкт-Петербургского университета. Социология. 2010. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/konstruktivizm-kak-novaya-paradigma-v-naukah-o-cheloveke> (дата обращения: 11.06.2025).
14. Гаффарова Г.Г., Абдуллаева М.Н. (2018). Фалсафада конструктивизм муаммоси // Имом Бухорий сабоқлари. №3, -Б.96-98.
15. Гаффарова Г.Г., Абдуллаева М.Н. (2018). Конструктив диалог - ҳаракатлар стратегиясида муаммоларни ҳал қилиш йўли сифатида // Андижон давлат университети илмий ахборотномаси. 4-сон, -Б.48-51.
16. Dougiamas M. A Journey into Constructivism / M.Dougiamas. – Mode of access: <https://dougiamas.com/archives/a-journey-into-constructivism>
17. Steff L. Constructivism in education / L.Steffe, J.Gale (ed). – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1995. –р.XIII.